


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70810104 – Xalqaro qishloq xo‘jaligi magistratura
mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
202 5 -yil “25” noyabr dagi 462 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

70810104 – *Xalqaro qishloq xo'jaligi* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi. Mazkur malaka talabi 70810104 – *Xalqaro qishloq xo'jaligi* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun amal qiladi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70810104 – *Xalqaro qishloq xo'jaligi* qishloq xo'jalik texnikasini va mashinalarini yaratish, ishlab chiqarish sohasida ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq tashkilotlar; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga qarashli ilmiy-tadqiqot institutlarining Qishloq xo'jalik texnikasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha faoliyat yurituvchi bo'limlari; mutaxassislik sohasi bo'yicha texnologik va konstruktorlik ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari; mutaxassislik sohasiga oid oliy va professional ta'lim muassasalari; qishloq xo'jalik texnikasini loyihalovchi, ishlab chiqaruvchi tashkilotlar majmuini qamrab oladi.

Mutaxassis xalqaro agrar tizimlarda ilmiy-tadqiqot, loyihalash, agrotexnika, raqamli qishloq xo'jaligi, innovatsiya va startaplar, GIS/GPS va smart-irrigatsiya kabi sohalarda faoliyat yurita oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, tarmoq institutlari va oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

davlat boshqaruvi organlari va ularning turli hududiy bo‘linmalari, xalqaro tashkilotlar va agrar soha bo‘yicha nodavlat tashkilotlar;

xalqaro qishloq xo‘jalik tizimlari, agrotexnologiyalar va agroservis korxonlari;

xalqaro agroinnovatsiyalar, raqamli qishloq xo‘jaligi, GIS/GPS va smart-irrigatsiya tizimlari;

agro-robototexnika, dron texnologiyalari va muqobil energetika tizimlari;

xalqaro agrar loyihalarni boshqarish, ularni amalga oshirish va monitoring jarayonlari.

Mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, xalqaro tajriba hamda kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat sohasida qo‘shimcha o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

• ilmiy-tadqiqot va pedagogik;

• tashkiliy-boshqaruv;

• loyihaviy-texnologik;

• servis xizmatini ko‘rsatish;

• ishlab chiqarish-texnologik.

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70810104 – Xalqaro qishloq xo‘jaligi mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

xalqaro ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

xalqaro hamkorlikdagi agrar loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilish;

qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar (GIS, GPS, smart-irrigatsiya, agro-robototexnika)dan samarali foydalanish;

xalqaro ta‘lim muassasalari va dasturlarida pedagogik faoliyat olib borish;

xalqaro agrar tizimlarda tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarida xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish;

xalqaro agrar bozorlarda tahlil, prognozlash va konsultatsion xizmatlar ko‘rsatish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalar (GIS, GPS, IoT, smart monitoring)dan foydalanib xalqaro agrar jarayonlarni kuzatish va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

xalqaro hamkorlikda ijrochilar jamoasi ishini samarali tashkil qilish;

xalqaro loyihalar va ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha ish rejalarini tuzish, nazorat qilish va zarur resurslarni rejalashtirish, erishilgan natijalarni baholash;

xalqaro agrar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining ekologik barqarorlik, atrof-muhit muhofazasi, yong'in xavfsizligi, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

xalqaro professional etika qoidalariga rioya qilish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

xalqaro qishloq xo'jaligi tizimlari, agroinnovatsion texnologiyalar va smart-irrigatsiya uskunalarni loyihalash;

xalqaro agrar loyihalarda zamonaviy agrotexnologiyalarni o'rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

xalqaro ishlab chiqarish va servis korxonalarida loyihalash-texnologik jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va qo'llash;

xalqaro tajribaga asoslangan agrar loyihalash va konsalting faoliyatida to'liq ishtirok etish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;

ilmiy-tadqiqot institutlari, xalqaro tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarida agrar tizimlar, agroservis va agrotexnologiyalarni loyihalash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;

xalqaro qishloq xo'jaligi sohasida loyihalash va konstruktorlik ishlarini zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalar asosida bajarish ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

xalqaro agrar tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida faol ishtirok etish;

xalqaro qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha innovatsion texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha texnikaviy-iqtisodiy tahlil o'tkazish;

xalqaro standartlarga mos holda ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;

xalqaro hamkorlikda pullik ta'lim va konsalting xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos xalqaro agrar sohada turli xizmatlarni ko'rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tabiat, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

qishloq xo'jalik texnikasini loyihalashtirishva konstruksiyasini ishlash sohasida yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi, asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

qishloq xo'jalik texnikasini loyihalashtirishva konstruksiyasini ishlash sohasida kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan

foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olish;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirish va tajriba orttirishga qaratiladi.

Ta'lim mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish;

2. Ilmiy-pedagogik ish;

3. Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish).

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari va ilmiy faoliyat turlari	Umumiy yuklama (soat)	Kredit	Semestr
1.00	MFM148	Majburiy fanlar	1380	48	1,2,3
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	QNH5108	Qishloq xo'jaligida mexanizatsiya va avtomatlashtirish tizimlari	120	4	3
1.03	IUE5108	Ilmiy-tadqiqot usullari va eksperimental rejalashtirish	360	12	1,2
1.04	QXE6106	Qishloq xo'jalik texnikalarini raqamli boshqarish va monitoring tizimlari	300	10	2,3
1.05	AQX6104	Axborot texnologiyalari va raqamli qishloq xo'jaligi	360	12	2,3
1.06	SI6104	Agrar tizimlarda mexatronika va robototexnika	180	6	1
2.00	TFM212	Tanlov fanlari	360	12	1,2,3
		Jami:	1800	60	1, 2, 3
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnik, pedagog-tadqiqotchi			
3.00	IFM1460	Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
3.01	ITIMDT2123438	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1020	34	1,2,3,4
3.02	IPI212312	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IATO2410	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	300	10	4
		Davlat attestatsiyasi	120	4	4
		Jami:	1680	60	1,2,3,4
		HAMMASI:	3600	120	1,2,3,4

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriyatning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturi, qonun, qoida, magistratura, konsalting, qishloq xo‘jalik texnikasi, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, mustaqil ta’lim, o‘quv fanlari bloki, ta’lim jarayoni, amaliyot obyekti, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, xalqaro qishloq xo‘jaligi, agrotexnika, raqamli qishloq xo‘jaligi, smart-irrigatsiya, GIS, GPS, dron texnologiyalari, agro-robototexnika, mexatronika, muqobil energetika, xalqaro servis tizimlari, ilmiy tadqiqot usullari, eksperimental rejalashtirish, innovatsiya, agrostartaplar, resurs tejash texnologiyalari, ekologik barqarorlik, xalqaro agrar loyihalar, qishloq xo‘jalik mashinalari konstruktsiyasi, ekspluatatsiya, monitoring tizimlari.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQLIGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti



Rektor _____ prof. N.N.Oblomuradov

2025 yil « _____ » _____

M.O'.

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti



Direktor _____ R.R.Xudaykuliev

2025 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**



Direktor _____ A.J.Xoliqov

2025 yil « _____ » _____

M.O'.

"CHIRCHIQSELMASH" MCHJ

Bosh direktor _____ D.E.Mirjalilova

2025 yil « _____ » _____

M.O'.



**O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligi
vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi
texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash
va sinash markazi**



Direktor _____ M.A.Xakimov

2025 yil « _____ » _____

M.O'.

"UHM LANDTECH" MCHJ

Direktor _____ B.Saburov

2025 yil « _____ » _____

M.O'.

